

1/2026,
yanvar-
fevral
(№ 00081)



TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TAHDIDLARNING XUSUSIYATLARI

Nabiyev Bexzod Shavkatovich

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik Oliy maktabi bosh mutaxassisi

Email: bexzodnabiyev@mail.ru

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol14_iss1/781

Annotatsiya

Maqolada tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir etuvchi tahdidlar hamda iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda faoliyat xavfsizligiga ta'sir etuvchi tahdidlarni oldini olish yo'llarini aniqlash, hisobga olish va taxmin qilish bilan bog'liq vaziyatlarda samarali qarorlar qabul qilish jarayoni taxlil qilingan.

Kalit so'zlar: Murakkablik tamoyili, xususiy tadbirkorlik, iqtisodiy xavfsizlik, tahdidlar, himoya qilish, davlat tayanchi, qo'llab-quvvatlash.

ОСОБЕННОСТИ УГРОЗ, ВЛИЯЮЩИХ НА ЭКОНОМИЧЕСКУЮ БЕЗОПАСНОСТЬ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

Набиев Бехзод Шавкатович

главный специалист Высшей школы бизнеса и предпринимательства при Кабинете Министров Республики Узбекистан

Аннотация

В статье анализируется процесс принятия эффективных решений в ситуациях, связанных с выявлением, учетом и прогнозированием угроз, влияющих на экономическую безопасность субъектов предпринимательства, а также способов предотвращения угроз, влияющих на безопасность деятельности при обеспечении экономической безопасности.

Ключевые слова: Принцип сложности, частное предпринимательство, экономическая безопасность, угрозы, защита, государственная поддержка, поддержка.

FEATURES OF THREATS AFFECTING THE ECONOMIC SECURITY OF BUSINESS ENTITIES

Nabiev Bekhzod Shavkatovich

Chief Specialist of the Higher School of Business and Entrepreneurship under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan

Abstract

The article analyzes the process of making effective decisions in situations related to identifying, accounting for, and forecasting threats affecting the economic security of business entities, as well as ways to prevent threats affecting the safety of activities while ensuring economic security.

Keywords: Complexity principle, private entrepreneurship, economic security, threats, protection, state support, support.

Kirish

Iqtisodiyotning globallashuvi, raqobatning kuchayishi va tashqi muhitning beqarorligi sharoitida tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy xavfsizligi muammosi ayniqsa dolzarb bo‘lib qolmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismi sifatida ko‘plab ichki va tashqi xavf-xatarlarga eng ko‘p duchor bo‘ladi. Moliyaviy resurslarning cheklanganligi, bozor kon’yunkturasiga bog‘liqligi, soliq va huquqiy tartibga solishdagi o‘zgarishlar, innovatsiyalar va investitsiyalar bilan bog‘liq xatarlar iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash masalalariga e‘tiborli munosabatda bo‘lishni talab etadi.

Ma‘lum sharoit yoki ish jarayonida vujudga keladigan tahdidlar yuritib kelinayotgan iqtisodiy faoliyat tajribasidan kelib chiqqan holda aniqlash imkoni mavjud. Ish jarayoni davomida falokatlar, tabiiy hodisalar tufayli yuzaga kelgan tahdidlarni ko‘p jihatdan e‘tiborga olinmasligi mumkin, biroq ushbu holatlar tufayli yuzaga keladigan moddiy zararlarni hisobga olish zarurdir.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatining iqtisodiy xavfsizligiga ta‘sir etuvchi tahdidlarning namoyon bo‘lishini belgilovchi xususiyatlari iqtisodiy xavfsizlik tuzilmasidagi funksional komponentlarni aks ettiradi: moliyaviy, intellektual va xodimlar, texnologik, siyosiy va huquqiy, ekologik, axborot.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Iqtisodchi olim I.S.Xotamov “Iqtisodiy xavfsizlik davlat milliy xavfsizligini ta‘min etuvchi asosiy bo‘g‘inlaridan biri, mamlakat iqtisodiy ehtiyojlarini kafolatli ta‘minlash yo‘llari, vositalari va usullariga asoslanuvchi qarashlar yig‘indisidan iborat. Konseptual ko‘rinishda u davlat iqtisodiy potentsiali holatidan kelib chiqadigan iqtisodiy xavfning asosiy omillari tahliliga asoslanadi”¹ deb ta‘rif keltirgan. Ushbu nazariy qarash orqali muallif iqtisodiy xavfsizlik mamlakat iqtisodiy ehtiyojlarini qondiruvchi omil ekanligini nazarda tutmoqda.

Yana bir mamlakatimiz iqtisodchi olimi H.P.Abulqosimov “Xavfsizlik ko‘p qirrali bo‘lib, u butun insoniyat, davlat yoki iqtisodiy tizimning normal faoliyat yuritishi, rivojlanishi uchun noxush, salbiy, zararli ta‘sirlardan, xavf-xatarlardan saqlanish, himoyalanih holatini ifodalaydi. Xavfsizlik umumiy tarzda ziyon yetkazish uchun potentsial sharoitlarning yo‘qligi, saqlanishlik, himoyalanih va ishonchlikni anglatadi”² deya ta‘rif keltirib, “Korxonalarining (firma) iqtisodiy xavfsizligini tahlil qilganda ularni ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, moliyaviy, savdo-tijorat hamda notijorat va jamoatchilik tashkilotlari sifatida faoliyat yuritishi nuqtai nazaridan turkumlash maqsadga muvofiq. Korxonaning (firma) ixtisosligiga ko‘ra xavfsizligini ta‘minlash xususiyatlari ham turlicha bo‘lishi tabiiydir”³ degan fikrni ilgari surgan.

Mamlakatimiz olimlaridan professor I.B.Israilov o‘z ilmiy qarashlarida “Iqtisodiy xavfsizlik - milliy iqtisodiyotning mustaqil rivojlanish hamda barqarorligi, maromiyligi,

¹И.С.Хотамов. “Иқтисодий хавфсизлик ва рақамли иқтисодиёт” мақола. “Ўзбекистонда рақамли иқтисодиётни шакллантиришда менежмент ва корпоратив бошқарувнинг аҳамияти” халқаро илмий-амалий конференция. – Т.: “ТДИУ” 2020 й. 376-б.

² Ҳ.П.Абулқосимов “Иқтисодий хавфсизлик” ўқув қўлланма. –Т.: “Академия”, 2006 й. 7-б.

³ Ҳ.П.Абулқосимов “Иқтисодий хавфсизлик” ўқув қўлланма. –Т.: “Академия”, 2006 й. 29,30-б.

doimiy yangilanish imkoniyatini beradigan omillar hamda shart-sharoitlarni ta’minlanganligidir”⁴ deya ta’rif keltirib o’tgan.

Iqtisodchi olim M.G.Lapusta o’zining nazariy qarashlarida “korxonalar faoliyatining tahdidi deganda, bajarilishi rejalashtirilgan faoliyat natijasining noaniqligi bilan ifodalanadigan, faoliyatning muvaffaqiyatsizligi (yoki muvaffaqiyatining) darajasini aks ettiruvchi iqtisodiy toifa tushuniladi”⁵ deya ta’kidlagan.

Tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy xavfsizligi tizimini asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat bo’lishi lozim:

1. Murakkablik tamoyili. Bu iqtisodiy xavfsizlikning ishonchli tizimini yaratishni o’z ichiga oladi, unga xavfsizlikning boshqa turlari asos bo’ladi: atrof-muhit, ilmiy-texnik, kadrlar va boshqalar.

2. Profilaktik choralarining ustuvorlik tamoyili. Bu iqtisodiy xavfsizlik tizimi dastlabki bosqichda turli xil xavf omillarni aniqlashi va ularni oldini olish choralari ko’rish.

3. Uzluksizlik tamoyili. Ushbu tamoyilning mohiyati tavakkalchilik sharoitida korxonaning iqtisodiy manfaatlarini doimiy ravishda himoya qilinishini ta’minlashdan iborat bo’lishi lozim.

4. Qonuniylik tamoyili. Bu korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash amaldagi qonunchilikka zid bo’lmasligi kerak.

5. Rejalashtirish tamoyili. Xavfsizlik jarayonining har bir ishtirokchisi o’zining oldida turgan vazifalarni hal qilib, izchil harakat qilishi kerakligini nazarda tutadi.

7. O’zaro ta’sir o’tkazish tamoyili. Korxonaning xavfsizligini ta’minlash uchun uning barcha bo’limlari va xizmatlarining muvofiqlashtirilganligi.

8. Qobiliyatlilik tamoyili. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash masalalari bilan muammoning mohiyatini tushunadigan, vaziyatni baholashga va to’g’ri qaror qabul qilishga qodir bo’lgan mutaxassislardan iborat bo’lishi.

Iqtisodiy xavfsizlik tamoyillari va uni ta’minlash vositalari asosida doimiy tarzda tahlil qilish hamda iqtisodiy xatarlarni oldini olish uchun doimiy ravishda davlat tomonidan konseptual xujjatlarni qabul qilib, amaliyotga joriy etish, korxonalar rahbarlarining iqtisodiy bilimlari yuzasidan malaka ko’nikmalarini oshirib borish maqsadga muvofiqdir.

O’zining ilmiy qarashlaridan kelib chiqqan holda L.P. Goncharenko va E.S. Kutsenko tahdidlarning ikki guruhini ajratishmoqda, bular ob’yektiv va subyektivdir⁶.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida: «Faol tadbirkor deganda, biz raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qodir, eng muhimi, yangi ish o’rinlari yaratib, nafaqat o’zini va oilasini boqadigan, balki butun jamiyatga naf keltiradigan ishbilarmon insonlarni tushunamiz. Bunday tadbirkorlar safini kengaytirish, jumladan, yuqori texnologiyalar, ilm-fanning eng so’nggi yutuqlariga asoslangan texnika va asbob-uskunalarini mamlakatimizga olib kelish va joriy etish uchun ularga munosib sharoitlar yaratish bizning birinchi galdagi vazifamiz bo’lishi shart. Kerak bo’lsa, xorijdagi

⁴И.Б.Исраилов. “Иқтисодий хавфсизликни таъминлашнинг долзарб масалалари” мақола. “Мамлакат иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг асосий йўналишлари” республика илмий-амалий конференция. –Т.: “ТДИУ” ва “ЎРБПА” 2019 й. 68-б.

⁵ М. Г. Лапуста. Предпринимательство: учебник / Под ред. М. Г. Лапуста. 2-е изд. М.: Инфра-М, 2002. С. 433.

⁶ Гончаренко Л.П., Куценко Е.С. Управление безопасностью. – М.: КНОРУС, 2005. – 272с

yetakchi kompaniya va tashkilotlarda tajriba orttirishi, o‘zaro manfaatli hamkorlik qilishi uchun ularga har tomonlama imkoniyat tug‘dirib berishimiz lozim»⁷.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlashga oid yondashuvlar asosan tahdidlarni tasniflash va umumiy tamoyillarni belgilash bilan cheklangan. Muallif tomonidan esa iqtisodiy xavfsizlikka ta‘sir etuvchi tahdidlar ta‘sir darajasi va namoyon bo‘lish xususiyatlari asosida tizimlashtirilib, ularni boshqarishda kompleks va bosqichli yondashuv zarurligi asoslanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tahlil jarayonida kuzatuv metodi orqali tadbirkorlik subyektlarini iqtisodiy xavfsizligining funktsional elementlari aniqlangan, hamda tadbirkorlik subyektlarida iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashning asosiy yo‘nalishlari aniqlangan.


Tahlil va natijalar

Tadbirkorlik subyektlari moliyaviy faoliyatining turli sohalari tahlil qilinganda uning iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlarni oldindan aniqlab borish imkoniyati yaratiladi.

Xavf, tahdidlar tashqi va ichki ish muhitining iqtisodiy faollik darajasiga ta‘sir qilishi, hatto bankrotlik darajasini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan omillar sifatida qaraladi. Ikkinchidan esa, xo‘jalik yurituvchi subyektning xavfsizligini ta‘minlay olmaslik va xatarlarning boshlanishini anglatadi, bu amalda aktivlarning ko‘p qismi yo‘qotishga, bozordagi o‘rnini yo‘qotishga, bankrotlik va boshqalarni keltirib chiqaradi.

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy xavfsizligiga ta‘sir etuvchi tahdidlarning asosiy xususiyatlari iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash darajasini belgilaydi. Ba‘zi tahdidlar ta‘sir darajasi yuqori ba‘zilari esa qisman bo‘lishi mumkin (1-rasm).


⁷Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.— «O‘zbekiston» NMIU, 2018. —19-b.



1-rasm. Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir etuvchi tahdidlarning xususiyatlari⁸

Yuqorida keltirilgan rasmdan tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir etuvchi tahdidlarning xususiyatlarini qisman ta'sirga ega darajadan ko'ra yuqori darajali tahdidlar salmog'i ko'p ekanligini ko'rish mumkin. Bu esa o'z navbatida faqatgina yuqori darajali tahdidlarni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan cheklanmaslik lozim ekanligini anglatadi. Har ikki holatni e'tiborga olish foydali hisoblanadi.

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy xavfsizligi bu ta'sir etuvchi tahdidlardan himoyalashda bir tomondan korxonalar majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish qobiliyati bilan, ikkinchidan esa uning egasi, xodimlar va hamkorlar tomonidan tavsiflanadi. Ushbu ta'rifdan kelib chiqadiki, agar taraflarning hech bo'lmaganda bittasi o'z majburiyatlarini vaqtida bajarmagan bo'lsa, boshqa tomonlarning manfaatlari buziladi va manfaatlar buzilgan tomonning vaziyatga javobi sifatida tahdid paydo bo'lish ehtimoli vujudga kelishi mumkin. Shunday qilib, biz tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning asosiy oltita darajasiga e'tibor berish lozim deb hisoblaymiz (2-rasm).



2-rasm. Tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning asosiy oltita darajasi⁹

Ushbu oltita darajaga bir vaqtda amal qilish prinsipiga muvofiq ko'rib chiqilishi xavfsizlik nuqtai nazaridan har biri xavfsizlik subyekti va xavfsizlik ob'yekti, tahdid manbai va tahdid ob'yekti sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, barcha darajalar korxonalar holatini iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun teng darajaga egadir.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy xavfsizligi ko'p omilli va dinamik tizim bo'lib, unga ta'sir etuvchi tahdidlar tashqi va ichki muhit omillari bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Aniqlanishicha, tahdidlar faqat yuqori ta'sir darajasiga ega holatlar bilan cheklanib qolmay, qisman ta'sir etuvchi omillar ham iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda moliyaviy, institutsional, kadrlar, axborot va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash darajalarini o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Bu esa iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda faqat reaktiv chora-tadbirlar bilan cheklanmasdan, tahdidlarni oldindan aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan profilaktik mexanizmlarni joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqotda ishlab chiqilgan yondashuv tadbirkorlik subyektlarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash tizimini takomillashtirish, xavf-xatarlarni kompleks baholash va boshqarish orqali barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. И.С.Хотамов. “Иқтисодий хавфсизлик ва рақамли иқтисодиёт” мақола. “Ўзбекистонда рақамли иқтисодиётни шакллантиришда менежмент ва корпоратив бошқарувнинг аҳамияти” халқаро илмий-амалий конференция. –Т.: “ТДИУ” 2020 й. 376-б.

2. Ҳ.П.Абулқосимов “Иқтисолий хавфсизлик” ўқув қўлланма. –Т.: “Академия”, 2006 й. 7-б.
3. Ҳ.П.Абулқосимов “Иқтисолий хавфсизлик” ўқув қўлланма. –Т.: “Академия”, 2006 й. 29,30-б.
4. И.Б.Исраилов. “Иқтисодий хавфсизликни таъминлашнинг долзарб масалалари” мақола. “Мамлакат иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг асосий йўналишлари” республика илмий-амалий конференция. –Т.: “ТДИУ” ва “ЎРБПА” 2019 й. 68-б.
5. М. Г. Лапуста. Предпринимательство: учебник / Под ред. М. Г. Лапуста. 2-е изд. М.: Инфра-М, 2002. С. 433.
6. Гончаренко Л.П., Куценко Е.С. Управление безопасностью. – М.: КНОРУС, 2005. – 272с.
7. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. — «O‘zbekiston» NMIU, 2018. —19-b.
8. Қобилов Ш. Р. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик –мамлакатнинг иқтисодий ва сиёсий таянчи. Т.: “Ўқитувчи”, 2011. – 96 б.
9. Bayboboeva, F. (2023). KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING YO’NALISHLARI VA FUNKSIONAL ELEMENTLARI. *Economics and Innovative Technologies*, 11(3), 262-268.